

---

## Rishton tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasi bayonoti

Ijtimoiy tarmoqlarda «Piyodalar uchun yo'laklar qilinmagan» deb nomlangan murojaat yuzasidan Rishton tumani yo'llardan foydalanish unitar korxonasi quyidagilarni ma'lum qiladi. O'ZBEKISTON

RESPUBLIKASINING "AVTOMOBIL YO'LLARI TO'G'RISIDA" QONUNIga ko'ra, avtomobil yo'li, uning tegishli konstruktiv elementlari va muhandislik inshootlari, shuningdek avtomobil yo'lidan foydalanish uchun zarur bo'lgan binolar, inshootlarni joylashtirish, ihota va manzaralni daraxtzorlar barpo etish uchun doimiy foydalanishga qonunchilikda belgilangan tartibda beriladigan yer uchastkalari alohida loyihaga kiritiladi. Unda ajratilgan mintaqaga tutashgan, chegaralarida aholi xavfsizligini va transportning harakatlanish xavfsizligini ta'minlash uchun yerdan foydalanishning alohida shartlari belgilan bo'lib, istalgan joydan o'tish uchun yo'laklar qurilishi ta'qiqlangan. Bularning barchasi harakatlanish xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir.

2022-11-11 10:32:51